

FALASTIN

Mahmudova Zulfiya Alimjanovna*Andijon Davlat pedagogika instituti**Ijtimoiy gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi***Kamolov Davron Akmal o'g'li***Ijtimoiy gumanitar va san'at fakulteti 102-guruh talabasi*

Annotatsiya: Falastin davlati, O'rta Sharq mintaqasida joylashgan bo'lib, tarixiy va siyosiy jihatdan murakkab bir hududdir. Ushbu maqolada Falastinning tarixi, madaniyati, siyosiy holati, xalqaro aloqalari va kelajakdagi istiqbollari haqida ma'lumot beriladi. Falastin xalqi, o'z mustaqilligini va madaniy merosini saqlashga intilmoqda.

Kalit so'z: Falastin, siyosiy holat, tarix, madaniyat, urushlar, tinchlik jarayoni, xalqaro aloqalar, mustaqillik, qochqinlar, juda ko'p millatlar, diniy meros, iqtisodiy rivojlanish, G'arbiy Sohil, Gaza, Isroil, arab xalqlari, demokratik jarayon, tinchlik muzokaralari, aholi, madaniy tadbirlar, kelajak istiqbollari.

Abstract: The State of Palestine, located in the Middle East region, is a historically and politically complex region. This article provides information on Palestine's history, culture, political status, international relations, and future prospects. The Palestinian people strive to preserve their independence and cultural heritage.

Key word: Palestine, political situation, history, culture, wars, peace process, international relations, independence, refugees, many nationalities, religious heritage, economic development, West Bank, Gaza, Israel, Arab nations, democratic process, peace talks, population, cultural activities, future prospects.

Абстрактный: Государство Палестина, расположенное в регионе Ближнего Востока, является исторически и политически сложным регионом. В этой статье представлена информация об истории, культуре, политическом статусе Палестины, международных отношениях и перспективах на будущее. Палестинский народ стремится сохранить свою независимость и культурное наследие.

Ключевые слова: Палестина, политическая ситуация, история, культура, войны, мирный процесс, международные отношения, независимость, беженцы, многие национальности, религиозное наследие, экономическое развитие, Западный Берег, Газа, Израиль, арабские страны, демократический процесс, мирные переговоры, население, культурная деятельность, перспективы на будущее.

Kirish

Falastin davlati, tarixiy va madaniy jihatdan boy bir hududda joylashgan, o'zining qiyin tarixi va murakkab geopolitik vaziyatlari bilan ajralib turadi. Falastin, Sharqiy O'rta er

dengizi mintaqasida, Isroil, Iordaniya va Misr bilan chegaradosh bo'lib, o'z ichiga Quddus, G'azo, Janubiy Iordaniya va boshqa muhim shaharlarni oladi. Falastin tarixiy jihatdan turli xil madaniyatlarning va tsivilizatsiyalarning markazi bo'lib, u yerda qadimgi ibroniylar, rimliklar, arablar va boshqa xalqlar yashagan.

Falastin mintaqasining tarixiy ahamiyati, uning din va madaniyat sohasidagi merosi bilan ham bog'liq. Bu yerda nafaqat diniy joylar, balki turli madaniyatlar va urf-odatlar bir-biri bilan aralashgan. Falastin, Islom, Xristianlik va Yahudiylik kabi dinlar uchun muhim ziyoratgohlar bilan to'la. Biroq, Falastin tarixida urushlar, siyosiy mojarolar va mustamlaka davrlari ko'plab muammolarni keltirib chiqardi.

Falastin davlati o'zining mustaqillik harakatlari, xalqaro maydondagi diplomatik tashabbuslari va o'z madaniyatini saqlab qolish yo'lidagi kurashi bilan tanilgan. 1988-yilda Falastin davlatining mustaqilligi e'lon qilinganidan so'ng, bu hududning xalqaro tan olinishi va davlat sifatida mustahkamlanishi jarayoni boshlangan. Hozirgi kunda, Falastin ikkita asosiy mintaqaga bo'lingan: G'azo sektori va Yashil chiziq (West Bank). Ushbu mintaqalardagi siyosiy vaziyatlar, iqtisodiy holatlar va ijtimoiy hayotning rivojlanishi, Falastin xalqining hayotiga bevosita ta'sir qiladi.

Ushbu referatda, Falastin davlati tarixi, madaniyati, siyosiy holati va xalqaro munosabatlari haqida batafsil ma'lumot beriladi. Buning natijasida, Falastin xalqining madaniy merosi va tarixi, shuningdek, uning hozirgi zamondagi muammolari haqida yaxshiroq tushuncha hosil qilish imkoniyati yaratiladi.

Falastin – G'arbiy Osiyodagi tarixiy viloyat (qadimiy yahudiycha pelishtim – „filistinliklar“ so'zidan olingan). O'rta dengizning sharqiy sohilidajoylashgan. Maydoni 26 ming kv. km. Falastinning asosiy qismi [Isroil](#) bilan [Iordaniyaga](#) qarashli. Miloddan avvalgi 5—4 ming yillikda Falastinga somiy qabilalari kirib kelgan. Miloddan avvalgi 3—2 ming yillikda Falastinda xanaaneylarning ilk shahar-davlatlari paydo bo'lgan (miloddan avvalgi 2ming yillikda [Falastin](#) va [Finikiya](#) hududi Xanaan deb atalgan). Miloddan avvalgi XIV—XII -asrlarda Falastin [Misr](#) tasarrufida bo'lgan. Miloddan avvalgi 13-asr oxirida Falastinda filistimliklarning hukmronligi o'rnatilgan. O'sha vaqtdayoq mamlakatning aksariyat qismi miloddan avvalgi XI asrda tashkil bo'lgan Isroil yahudiy podsholigi hududida istiqomat qiluvchi qabilalar tomonidan zabt etilgan. [Dovud](#) va [Sulaymon](#) podshohlar davrida Isroil qudrati avjiga chiqqan. taxminan 935-



yilda bu davlat ikkita podsholik – Isroil va Iudeya (Yaqudiya)ga bo'lingan. Miloddan avvalgi VIII asr oxirida Falastinning shimoliy hududi – Isroil podsholigi Ossuriya tomonidan bosib olingan. Janubiy Falastin (Iudeya podsholigi)ni miloddan avvalgi VI asrda bobilliklar, so'ngra axamaniylar, miloddan avvalgi IV asrda makedoniyalik Aleksandr o'zlariga bo'ysundirganlar. Miloddan avvalgi III-II asrlarda Falastin Ptolemeylar (Misr) bilan Salavkiylar o'rtasida talash bo'lgan. Falastin milodiy I asrda (63 yil) rimliklar

tomonidan bosib olingan. Lekin faqat Iudeya urushlari (66—73 yillar) va Bar Koxba qo‘zg‘oloni (132— 135) bostirilganidan so‘nggina Falastin Rim imperiyasining viloyatiga aylangan.

Milodiy I asrda Falastida xristian dini paydo bo‘lgan. 395-yilda Falastin Vizantiya ixtiyoriga o‘tgan. 640-yil Falastin arablar tomonidan bosib olinib, [arab xalifaligi](#) tarkibiga kirgan. Abbosiylar davrida Falastinda iqto tizimi joriy qilingan, aholini islom diniga kiritish jarayoni avj olgan, xristianlarning huquqiy maqomi kuchsizlangan. Bu bir qator xalq qo‘zg‘olonlari, jumladan, 842-yil Abu Xarba boshchiligidagi g‘alayonga sabab bo‘ldi. Abbosiylar xalifaligi parchalanganidan so‘ng Falastin asta-sekin tuluniylar, ixshidiylar sulolalari hukmronligi ostiga o‘tgan. IX-XI asrlarda Falastinda iqtisodiy yuksalish yuz bergan, katta yer maydonlariga ishlov berilgan. Iudaizm, xristian va islomning diniy



markazi Quddusda XI asrda 40 ming aholi yashagan. Akka, Kesariya, Askalon, G‘azoda savdo rivojlangan. 1099-yil salibchilar Quddusni egallab, uni Quddus qirolligining markaziga aylantirganlar. 1187-yil Xattin yaqinidagi jangda Salohiddin salibchilarni yengib, Quddusni qo‘lga kiritgan. Falastin ayyubiylar, keyinroq mamluklar tomonidan Misrga qo‘shib olingan. Falastin 1516-yilgacha ularning qo‘lida bo‘lib, so‘ng turklar tasarrufiga o‘tgan. Usmonli turk imperiyasining XVII asr oxiridan tanazzulga yuz tutishi bilan turk xukmdorlarining o‘zboshimchaligi kuchaygan. Soliqlar oshgan.

Natijada Falastin iqtisodiy tushkunlikka uchragan. XIX asrning 20-yillarida Falastinda turklarga qarshi xalq harakati kuchaygan. 1832-yil Falastin Misr podshosi MuhammadAli tomonidan zabt etilgan. Hokimiyatning markazlashuvi, zodagonlar zulmining cheklanishi Falastinni iqtisodiy rivojlanishiga turtki bo‘lgan. Ammo soliqlarning ko‘payishi, harbiy majburiyatning joriy qilinishi aholi o‘rtasida qo‘zg‘olonga olib kelgan (1834). Livan va Suriya xalqining Misr hukmronligiga qarshi 1840-1841 yillardagi kurashini Falastin xalqi qo‘llab-quvvatlagani bahonasida Falastinda turk hukmronligi tiklangan. XIX asrning 40-yillaridan boshlab Yevropa davlatlari Falastinga kirib kela boshladilar. 1869-yil Suvaysh kanalining ochilishi bilan Falastinning strategik va iqtisodiy ahamiyati yanada kuchaydi. 1892-yil fransuz kompaniyasi Falastinda birinchi Yaffa – Quddus temir yo‘lni qurgan. XIX asr oxiridan boshlab Yevropa mamlakatlaridagi yahudiy aholining Falastinga ko‘chishi boshlangan. [Birinchi jahon urushi](#) yillarida Falastin [Germaniya](#), Turkiya hamda ingliz qo‘shinlari o‘rtasidagi kurash maydoniga aylangan. Bu raqobat Falastinni inglizlar tomonidan zabt etilishi bn yakunlandi. 1916-yil SayksPiko shartnomasiga binoan, Falastinda xalqaro rejim joriy qilinishi lozim bo‘lgan. Falastinda o‘z mavqeini mustahkamlash maqsadida inglizlar Yevropa mamlakatlarida XIX asrning 90-yillarida

paydo bo‘lgan reaksiya (teskarichi) – millatchi harakatning ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan sionizmdan foydalanganlar. Sionistlar Falastinda yahudiylar davlatini tuzishni talab qilganlar. 1917-yil 2-noyabrda Angliya hukumati Balfur deklaratsiyasini e‘lon qilib, Falastinda „yahudiy xalqi uchun milliy maskan“ tuzishni va‘da qilgan. 1920-yil aprelda SanRemo shahri (Italiya)da Angliya Falastin ustidan ingliz mandatini joriy etishga moyassar bo‘lgan. Angliya Falastinning iqtisodiy va siyosiy hayotida hal qiluvchi mavqega ega bo‘lgan, Yevropa mamlakatlaridan ko‘plab yahudiylarning kirib kelishiga imkon yaratgan. Sionist tashkilotlar Falastinda bir nechta konsessiyalarni qo‘lga kiritganlar. Mamlakatdagi butun hokimiyat ingliz oliy komissari qo‘liga o‘tgan. Uning huzuriga ingliz amaldorlaridan tarkib topgan „Falastin hukumati“ tuzilgan. Arab aholisi mamlakatni idora qilishga jalb etilmagan. 1920—1939-yillarda ingliz mustamlaka siyosati sionistlar bilan hamkorlik qilishga asoslangan. Sionistlar Angliya yordamida arab xalq ozodlik harakatiga qarshi ish ko‘rganlar. Shu bois Angliya arab aholisining kuchli noroziligiga duch kelgan va natijada unga qarshi qurolli qo‘zg‘olonlar ko‘tarilgan. 1936-yil oktabrda Pil boshchiligida Falastinga yuborilgan komissiya Falastinni yahudiylar va arablar yashaydigan qismlarga bo‘lishni tavsiya qilgan. Bu Falastindagi arab tashkilotlari va arab mamlakatlarining qattiq noroziligini keltirib chiqargan. 1939-yil may oyida ingliz hukumati „Oq kitob“ ni e‘lon qilishga majbur bo‘lgan. Unga ko‘ra, Angliya ma‘muriyati Falastinga yahudiylarning kelishini cheklashi va keyinchalik to‘xtatishga qaror qilgani bayon etilgan. Bu Angliya ma‘muriyati bilan sionistlar o‘rtasiga nizo solgan. Sionistlarni AQSH qo‘llab-kuvvatlagan.

Ikkinchi jahon urushidan so‘ng Falastin xalqlarining ingliz qaramligidan xalos bo‘lish uchun kurashi kuchaygan. 1947-yil Angliya Falastin masalasini BMT muhokamasiga qo‘yishga majbur bo‘lgan. 1947-yil 29-noyabrda BMT Bosh Assambleyasi Britaniya mandatini bekor qilish, Falastindan ingliz qo‘shinlarini chiqarish va Falastinda mustaqil demokratik yahudiy va arab davlatini tuzish haqida qaror qabul qilgan. Quddus shahri alohida xalqaro rejimga ega mustaqil ma‘muriy birlikka aylanishi lozim bo‘lgan. 1948-yil 14-mayda Yahudiy sionistik tashkilotlar Isroil davlati tuzilganligini e‘lon qilishgan. 14-maydan 15-mayga o‘tar kechasi Angliyaning qutqusi bilan 1948—1849 yildagi arab isroil urushi boshlangan. Arab davlati uchun mo‘ljallangan hududning bir qismi hamda Quddus shahrining g‘arbiy qismi Isroil tomonidan bosib olingan (6,7 ming kv. km). Isroil qo‘shinlari Falastin hududidan 900 mingdan ziyod arablarni haydab chiqarganlar. Shunday qilib, Isroil Yaqin Sharq mintaqasida qochoqlar muammosini keltirib chiqargan. Isroil BMT qaroriga muvofiq, Falastin arab davlatiga o‘tishi kerak bo‘lgan hududning 60% ini bosib olgan. Tashkil etilib ulgurmagan mana shu davlatning sharqiy qismi va Quddus (5,5 ming kv. km) Iordaniya hududiga, G‘azo sektori (258 ming kv. km) Misr nazoratiga o‘tib qolgan. 1949-yil sulh shartnomalariga binoan, Isroil bilan qo‘shni arab davlatlari o‘rtasida demarkatsiya chegara chizig‘i belgilangan.

1964-yil 28-mayda Quddusda qochoqdagi falastinliklarning Falastin Ozodlik tashkiloti (FOT) tuzilgan. 1967-yil iyunda Isroil – Suriya, Misr va Iordaniyaga qarshi urush boshladi. Isroil Sinay yarim orol, G‘azo sektori, Iordan daryosi g‘arbiy sohilidagi yerlar, Quddus hamda Jo‘lan tepaliklarini bosib olgan.

1987-yilga kelib Falastin qochoqlarining soni 2 mln.ga yaqinlashgan. 1988-yil 15-noyabrda Falastin Ozodlik tashkilotining oliy organi – Falastin Milliy kengashi Jazoir shahrida mustaqil Falastin davlati tuzilganini e’lon qilgan. 1989-yil 29-martda Falastin Ozodlik tashkiloti ijroiya qo’mitasi Yosir Arafotni Falastin davlati prezidenti etib tayinlagan. 1993 -yilning sentabrda Isroil bilan Falastin Ozodlik tashkiloti ikki tomon o’rtasidagi munosabatlarni yo’lga qo’yish tamoyillari to’g’risida deklaratsiyaga imzo chekdilar. Bu deklaratsiyaga muvofiq, 1994-yil mayda G’azo sektori (G’azza mintaqasi) va Iyerixon shahri atrofi (Iordan daryosining g’arbiy sohili)da Muvaqqat Falastin muxtoriyati tuzilgan. BMT Xavfsizlik Kengashi qaroriga muvofiq, Falastin mojarosini uzil-kesil hal etish uchun o’tish davri (5 yilgacha) belgilangan. 1996-yil yanvarda Falastin qonun chiqaruvchi kengashi saylangan. 1998-yil avgustda hukumat tuzilgan. Isroil Bosh vaziri A. Sharon hukumati davrida Falastin bilan Isroil o’rtasidagi tarang munosabatlar avjga chiqdi. 2004-yil 22-martda [HAMAS](#) tashkilotining rahbari shayx Ahmad Yosin o’ldirildi. Natijada Falastin masalasini xal qilish yanada murakkab tus oldi. 2004-yil noyabrda Yosir Arofat vafotidan so’ng uning o’rniga vaqtincha Mahmud Abbos tayinlandi. 2005-yil yanvarda Maxmud Abbos Falastin Ozodlik tashkiloti raisligiga saylandi.

Xulosa

Falastin davlati tarixi, madaniyati va siyosiy holati ko'plab murakkabliklar va ziddiyatlar bilan to'la. Tarix davomida Falastin, urushlar, mojarolar va siyosiy o'zgarishlar sahnasi bo'lib kelgan. Biroq, bu davlat o'zining madaniy merosi, tarixiy ahamiyati va xalqaro munosabatlari bilan bir qatorda, xalqaro miqyosda tan olinishi uchun kurash olib bormoqda. Falastin mintaqasi, Islom, Xristianlik va Yahudiylik kabi dinlar uchun muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu esa uning xalqaro miqyosda qiziqarli mavzu bo'lishini ta'minlaydi.

1988-yilda e’lon qilingan Falastin davlatining mustaqilligi, Falastin xalqining o'ziga xosligini va mustaqil davlatchilik orzusini aks ettiradi. Hozirgi kunda, Falastin, G'azo va Yashil chiziq mintaqalarida yashovchi xalqlar uchun turli muammolarni hal qilishda davom etmoqda. Bu mintaqalardagi siyosiy vaziyatlar, iqtisodiy sharoitlar va ijtimoiy hayot, Falastin xalqining hayotiga bevosita ta'sir etadi.

Falastin xalqining qattiq iroda va sabr-toqati, ularning madaniy merosini saqlab qolishga va kelajak avlodlar uchun yanada mustaqil davlat yaratishga qaratilgan. Falastin madaniyati, urf-odatlar va qadriyatlar, xalqning o'ziga xosligini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan asosiy omillar sifatida xizmat qiladi. Bularning barchasi, Falastin xalqining ko'p asrlik tarixini va jahon tarixidagi o'rnini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Falastin davlati, nafaqat o'z tarixi va madaniyati, balki kelajagi uchun kurashi bilan ham ahamiyatli. Bugungi kunda, Falastin xalqining o'z taqdirini belgilashdagi harakatlari va xalqaro maydondagi o'rnini, uning taqdiri va kelajagi uchun muhim ahamiyatga ega. Falastin, o'zining xalqiga xos merosi, tarixiy joylari va madaniyati bilan davom etayotgan kurashlarida kuchli va mustahkam davlat sifatida rivojlanishi uchun intilmoqda. Bu jarayon, nafaqat Falastin xalqining, balki butun dunyo uchun muhim saboqlar va imkoniyatlarni yaratishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.Xrestomatiya po istorii Drevnego Vostoka, pod. Red;
- 2.V. V. Struve i D. G. Redera, M., 1963; Struve V. V.;
3. Qadimgi Sharq tarixi, T., 1956; Turayev B. A.;
- 4.Yegipetskaya literatura, t. I, M., 1920;
- 5.Matye M. E., Iskustvo Drevnego Yegipta, M., 1958;
- 6.Vseobshaya istoriya arxitekturi, t. I, M., 1970 Inaya kultura Yegipta, v kn.;
- 7.Muzikalnaya kultura drevnego mira, [Sb. statey], L., 1937; L a u y e r J. F.,
- 8.Zagadki yegipetskix piramid, per. s frans., M., 1966; Ney
- 9.Briant, P. (2002). From Cyrus to Alexander: A History of the Persian Empire. Winona Lake: Eisenbrauns.
- 10.Kuhrt, A. (2007). The Persian Empire: A Corpus of Sources from the Achaemenid Period. London: Routledge.
- 11.Dandamaev, M. A. (1989). A Political History of the Achaemenid Empire. Leiden: Brill.
- 12.Wiesehöfer, J. (2001). Ancient Persia: From 550 BC to 650 AD. London: I.B. Tauris.
- 13.Curtis, J. & Tallis, N. (2005). Forgotten Empire: The World of Ancient Persia. London: British Museum Press.
- 14.Brosius, M. (2006). The Persians: An Introduction. London: Routledge.
- 15.Waters, M. (2014). Ancient Persia: A Concise History of the Achaemenid Empire, 550-330 BCE. Cambridge: Cambridge University Press.